



## “QUTLUG‘QON” DA AYOLLAR TIMSOLI VA ULARNING RUHIYATI TASVIRI

---

*UrDU magistranti  
Yuldasheva Quvonchoy*

Mustabid tuzumning qabih harakatlari istiqlool davriga qadar davom etgani ma'lum. Tom ma'noda o'zbek adabiyoti va uning faoliyati bu davrning og'ir oqibatlarini boshdan kechirganliklariga tarix guvoh bo'lishiga qaramasdan, millat jonkuyarlari el-yurt manfaati yo'lida matonat bilan kurashdilar. Mana shunday fidoyi adiblardan biri, millatning asl farzandi – Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekdir. Oybek asr boshida dunyoga kelib, davrning ancha-muncha sinovlarini ko'rdi. Yozuvchining butun hayoti o'zbek xalqi ma'naviyati yuksalishi uchun sarf bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Oybek ma'naviyatning deyarli barcha sohalariga – adabiyotshunoslik, publitsistika, tarjimonlik, shoirlik va yozuvchilikka ham bevosita daxldor edi.

Darhaqiqat, Oybekning publitsistika, tarjimonlik, adabiyotshunoslik, qolaversa, o'zbek prozasidagi asarlarini umumlashtirsak, butun bir davrni tashkil qiladi.

Tadqiqotlardan anglashiladiki, yozuvchini tarixiy asarlariga munosabat bilan zamonaviy ruhdagi asarlariga bildirilgan fikrlar orasida ma'lum darajada tafovutlar ko'zga tashlanadi. Buning bosh sababi o'sha davr siyosiy tuzumi edi.

Ushbu maqolamizga obyekt sifatida olingan “Qutlug‘ qon” romani sovet totalitar tuzumining shu davr uchun yetakchi namunasi sifatida tan olingan. Keyinchalik bu romanga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'pchilikni tashkil etdi. Lekin “Qutlug‘ qon” asariga tadqiqatlar mafkuraga bo'ysundirilgani bois, u o'z tabiiyigidan biroz yiroqlashdi. Vaqt o'tib “Qutlug‘ qon” ga yangicha nigoh bilan yondashuv boshlandi. Bularning bari istiqlool bergan erkinlik sharofati edi. Bizning maqsadimiz ham aynan asar qahramonlari taqdiri, ularning qalbida kechayotgan kechinmalar, ruhiy olamini atroflicha tahlil qilishdan iborat. XX asr o'zbek adabiyotining ko'pgina na'munalari ruhiy jihatdan tahlil etilgan. Shu qatorda Oybekning “Qutlug‘ qon” asari ham badiiy-ruhiy jihatdan tahlil etilishga arzirli muhim manbadir. Chunki, asardagi har bir obraz muallif tomonidan o'ziga xos uslubda tasvirlangan. “Qutlug‘ qon” da bosh obrazlar, epizodik obrazlar, qolaversa, xarakterlarning ruhiy olami o'ziga xos tarzda ochib berilgan. Shuning uchun biz tadqiqotimizda asarning poetik mazmunini



yoritib beruvchi bosh omil – xarakterlar olamiga alohida urg‘u berishga harakat qildik.

Bilamizki, ayolsiz hayot bo‘lmaganidek, adabiyotda ayollar obrazi kiritilmagan birorta asarning o‘zi yo‘q. Zero, adabiyot ayolga atab, ayol uchun, uning qalb quyoshini yoritmoq uchun, dil kechinmalarini izhor qilish uchun yaralgan. O‘zbekning yetuk yozuvchisi Abdulla Qahhor e’tirofi bilan aytadigan bo‘lsak, “Qushning ham erkagi sayraydi. So‘z san’ati, avvalo, erkaklar ijodidir, demakki, erkakni qiziqtirib, o‘ziga mahliyo etuvchi, har qanday bosh masala adabiyotning ham o‘zagini tashkil etadi. Erkakni esa, tabiiyki, ayol o‘ziga tortadi. Shunday ekan so‘z san’atining ham bosh mavzusi – ayol”. Har qanday qalam mahsulida ayol timsoli yetakchilik qiladi. U goh mushtipar ona bo‘lsin, goh sevimli yor, ba’zan opa-singil, ba’zan ko‘zqarog‘i qiz, doimiy ravishda adabiyot ixlosmandlari uchun yozishga asosdir. Darhaqiqat, muhabbat deb atalgan ilohiy tuyg‘u ham ayol timsoli atrofida uyg‘unlashadi.

Ayollar obrazining adabiyotda mavjud bo‘lishi folklor adabiyotiga borib taqaladi. Ayniqsa, diniy rivoyatlarda bu holat yanada yorqin aks etadi. Islomgacha bo‘lgan davrda va undan keyin ham ayolga o‘zgacha lutf bilan qaralgan. Ushbu mavzuyimiz ham aynan ayol obrazi orqali tahlil etiladi. Bunda, asosan, “Qutlug‘ qon” romani obyekt sifatida tanlandi va asar mohiyati bir qancha obrazlar vositasida ochib berishga harakat qilindi.

“Qutlug‘ qon” romanida jabrdiyda, ma’sum va baxtsiz qiyofada tasvirlangan Gulnor timsoli alohida e’tiborga molik. Oybek Gulnorning ruhiy olamini, dardini, hislarinigina emas, balki uning atrofida ro‘y berayotgan tabaqaviy kurashlarni va Gulnor ham bevosita ana shu kurashlar hukmiga tushib qolganini yorqin bo‘yoqlarda ta’sirli tarzda tasvirlagan. Asarni o‘qigan kitobxon Gulnorning fojiali hayotiga achinadi.

“Qutlug‘ qon” romanida ijobiy obrazlar qatoriga kiruvchi Gulsunbibi - o‘zi bir olam sifatida namoyon bo‘ladi. U nafaqat mehribon ona, balki odamgarchilikni har narsadan ustun qo‘yuvchi haqiqiy inson. Gulsunbibi qiyofasida itoatkorlik, erining rayiga qarshi bormaslik fazilatlarini ko‘rish mumkin.

Asarda “qoramtir, toza va sog‘lom yuzli, jingalak sochli, bo‘ychan” deya tasvirlangan Unsinning portreti mukammal chizilgan. Unsin Yo‘lchining singlisi. U hali 16 yosh bo‘lishiga qaramasdan davrining ko‘pgina qiyinchiliklarini ko‘radi. U mehnatkash, kamtar va mehribon edi.



“Qutlug’ qon” da u qadar nomi zikr etilmasada, voqealar rivojida bo’y ko’rsatuvchi Xushro’ybibi, ya’ni Yo’lchining onasi ham o’ziga xos o’ringa ega. Xushro’ybibi asarda kambag’allikdan qiynalgan timsoldir.

Salbiy obrazlar qatoriga kiruvchi Lutfinisoning dimog’dorligi uning nutqidan yaqqol sezilib turadi. Asarni o’qish jarayonida Lutfinisoning kambag’allarni mensimasligi o’quvchida salbiy taassurot qoldiradi. Lutfinisoning kalandimog’ligi Gulsinbibi va Gulnorga bo’lga munosabatida yanada yaqqol namayon bo’ladi. U xizmtkorlarining pokiza, ozoda ekanligini bilsa-da, kinoya bilan qizi Nuriga pichirlab: “Ehtiyot bo’l, bit-miti kirmasin!” - deb masxaralaydi. Onasini ko’rib qizini ol deganlaridek, Nurinisoning xarakteri Lutfiniso bilan deyarli bir xil. Ikkala obraz ham o’z baxtidan boshqa hech kimning baxtini ko’ra olmaydigan xasis qiyofasida gavdalanadi. Hatto, Nurining ba’zi xatti-harakatlarida o’zbek ayollariga xos bo’lmagan behayolik va yengiltaklik kabi nuqsonlarni ko’rish mumkin.

Yuqorida keltirilgan xotin-qizlar timsollari “Qutlug’ qon” dagi bosh obrazlar edi. Bularndan tashqari, asarda epizodik obrazlar ham uchraydi. Misol uchun, Saodat kampir, Oysara, Sharofat va Tursunoylar mavjud. Bular ham xarakter- xususiyatiga ko’ra ijobiy va salbiy bo’yoqlarga ega.

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, Oybek “Qutlug’ qon” romanidagi xotin-qizlar ruhiyatini ularning xatti-harakatlari, so’zlari va axloqi orqali mohirona ochib bergan. Qolaversa, yozuvchi ayollarning erksizligi davr taqazosi ekanligiga alohida urg’u beradi. Oybek ijtimoiy tuzum kirdikorlarini ochishda xotin-qizlar obrazlaridan unumli foydalana olgan. Yuqoridagi xarakterlar obrazlarda bir-birini takrorlamasligi esa adibning mahoratini yorqin namoyon qiladi. Shuning uchun ham Oybekning asarlari bugungi kunda ham qayta tahlilga tortilmoqda va yillar davomida kitobxonlar uchun muhim manba sifatida foydalanib kelinyapti.